

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ

КРЕДИТ-ИҚТИСОД ФАКУЛЬТЕТИ

“ТАСДИҚЛАЙМАН”

“Кредит-иқтисод” факультети декани

и.ф.н., доц. О.Саттаров _____

“ _____ ” _____ 2014 й.

.

“БАНК ҲИСОБИ ВА АУДИТ” КАФЕДРАСИ

КАМАЛОВ САНЖАРБЕК ШУХРАТОВИЧ

**БАНК ВА МИЖОЗЛАРНИНГ ШЕРИКЧИЛИК
МУНОСАБАТЛАРИНИ МУСТАҲКАМЛАШ**

5341900 – “Банк ҳисоби ва аудит” таълим

йўналиши бўйича

бакалавр даражасини олиш учун

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

“Ҳимояга тавсия этилади”

“Банк ҳисоби ва аудит”

кафедраси мудири

_____**и.ф.н., доц. Н.Обломуродов**

“ _____ ” _____ 2014 й.

Илмий раҳбар:

_____ к.ўқ. Ахмедова Д.

« _____ » _____ 2014 й.

MUNDARIJA:

KIRISH	3
I-bob. BANK VA MIJOZ MUNOSABATLARINING O`ZARO AHAMIYATI	6-23
1.1. Bank xizmatlari turlari va ularning tashkil etilishi....	6
1.2. Bank va mijoz sherikchilik munosabatlarining o`zaro ahamiyati va o`rni.....	16
II-bob. TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARGA XIZMAT KO`RSATISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	24-42
2.1. Banklarning yangi xizmat turlari va ularni amalga oshirish tartibi.....	24
2.2. Tijorat banklarida mijozlarga xizmat ko`rsatishning amaliy holati tahlili.....	32
III-bob. BANK VA MIJOZLARNING SHERIKCHILIK MUNOSABATLARINI MUSTAHKAMLASH YO`LLARI ...	43
XULOSA	50
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI....	53

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bank tizimi bozor iqtisodiyotining muhim va ajralmas qismidir. Tavar pul munosabatlarini keng miqyosda rivojlanishi banklar oldida yangidan yangi operatsiyalar bajarishga imkoniyatlar ochib beradi. Shuning uchun ham Respublikamizda bozor iqtisodiyoti talablariga mos keluvchi zamonaviy bank tizimi yaratish zarurati tug'ildi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining bosh maqsadi jahon talabiga mos keluvchi, rivojlangan milliy kredit tizimiga ega bo'lish, xo'jaliklar va aholining bo'sh turgan mablag'larini jalb qilish va uni samarali taqsimlash asosida aholining talablarini qondirish uchun zamiz yaratish va yashash sharoitini yaxshilashga erishishdan iborat. Bu maqsadga erishishini taminlash uchun davlatimiz tomonidan mamlakatimiz bank sektorining rivojlanishini ta'minlovchi zaruriy makroiqtisodiy sharoitlarni hamda bank tizimining barqarorligini taminlash, shuningdek bank nazorati tizimini va banklar faoliyatini boshqarish usullarini takomillashtirish, banklarning yangi xizmat turlarini yanada rivojlantirishga erishish va banklar o'rtasida raqobat bo'lishini ta'minlashga asos yaratishdan, nobank tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, moliya-kredit sektorininh xuquqiy bazasini yaxshilash, ularning moddiy-texnik jixatdan samarali taminlanganligiga erishish kabi choralarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib, Iqtisodiyotda tarkibiy va sifat o'zgarishlar davom etayotgan bugungi kunda banklar resurs kapitaling ko'payishi, bank xizmatlari doirasing yanada jadal kengayishi, innovatsion texnojogiyalardan foydalanish evaziga raqobatning kuchayishi, jaxon moliya – bank tuzilmalari bilan aloqalarning rivojlanishi va bank – moliya onnovatsiyalari segmentida loyihalarning ishlab chiqilishi O'zbekiston zamonaviy bank tizimining eng muhim tavsifi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Banklarning kapitallashuv darajasi va bank likvidligining oshirilishi pirovardida ularning moliyaviy barqarorligini taminlash uchun mustahkam zamin yaratdi. Shu bilan birga, keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishda banklarning investitsiya kreditlari orqali istirokini taminlashning faollashgani barqaror resurs bazasini shakllantiradi.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan jami banklar va ularning faoliyati hisoblanadi. 2013 – yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Respublikamizda 29 ta tijorat banki faoliyat ko'rsatib, ularning 3 tasi davlat tijorat banki, 13 tasi aksiyadorlik tijorat banki, 8 tasi hususiy bank va 5 tasi chet el kapitali ishtirokidagi bank hisoblanadi. Ularning 822 ta filiali tomonidan respublikamizning barcha hududlarida mijozlarga bank xizmatlari ko'rsatib kelinmoqda. Bank muassasalari tarmog'ining kengayib borayotganligi banklar o'rtasidagi raqobat muhitining ko'payishi hamda bank xizmat turlari sifati ko'lamining oshib borishiga imkon berdi.

Tijorat banklari oldida 2011-yil uchun belgilab berilgan ustuvor vazifalardan asosiysi ham banklarning barqarorligini va kapitallashuv darajasini yanada oshirish, yetakchi xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan qabul qilingan xalqaro meyorlar, mezonlar va standartlarga asoslangan holda, bank tizimini baholash ko'rsatkichlarining zamonaviy tizimini joriy etish belgilangan edi. Ushbu vazifalar doirasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tijorat banklaarining umumiy kapitalini qo'shimcha aksiyalar chiqarish orqali 2011-2015 yillarda o'rtacha 2,1 marta oshirishni taminlash vazifasini qo'ydi.

Mavzuning nazariy-amaliy ahamiyati. Bank tizimining moliyaviy barqarorligi va rivojlanish ko'rsatkichlari, xalqaro indikatorlar asosida tahlil qilinganda, yuqori darajadagi baholarga muvofiq keladi. Jumladan, bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi ko'rsatkichi 24,2 foizni tashkil qilib, bu bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan qabul qilingan xalqaro standartlarga nisbatan 3 barobar ko'pligini tashkil etadi.

Yurtimizda 2008- yildan boshlab tijorat banklari tomonidan xalqaro reyting olish uchun Moody's, fitch ratings, Standart & poor's, Thompson

financial bank watch, Japan credit rating agency, Rating agency malaysia kabi nufuzli xalqaro reyting kompaniyalari bilan o`zaro hamkorlik ishlari davom ettirildi.

Bugungi kunda mamlakatimiz bank tizimi xalqaro talablarga qat'iy javob beradigan eng barqaror tizimlardan biri sifatida faoliyat ko`rsatmoqda.

Buni Standart & poor's, Moody's, Fitch rating kabi xalqaro reyting agentliklari tomonidan so`ngi yillarda O`zbekiston bank tizimiga mustaqil ravishda "barqaror" reyting darajasi berib kelinayotgani ham tasdiqlab turibdi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzulishi – kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yhatidan iborat.

2012-yilda respublika bank tizimidagi islohotlar O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqaroligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko`rsatkichlariga erishishning ustuvor yo`nalishlari erishishning ustuvor yo`nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlar " dasturi hamda respublika moliya-bank tizimini rivojlantirishga oid boshqa hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga qaratildi.

Respublikamizda bank infratuzilmasining kengayib borishi banklar o`rtasidagi raqobat muhitining kuchayishi hamda bank xizmati turlari sifati va ko`lamining oshishiga xizmat qilmoqda.

Banklarda barqaror resurs bazasini shakllantirish va uni yanada kengaytirish, aholining bo`sh pul mablag`larini bank omonatlariga jalb qilishni yanada rag`batlantirish hamda kafolatlashga doir qabul qilinga Prezidentimizning qator Farmon va Qarorlari aholining bank tizimiga bo`lgan ishonchini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.¹

¹ Karimov I.A "Bosh maqsadimiz – keng ko`lamli islohotlar va modernizatsiya yo`lini qat'iyat bilan davom ettirish". – O`zbekistin Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 201-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi./Xalq so`zi 20-yanvar 2013-yil

I-bob. BANK VA MIJOZ MUNOSABATLARINING O`ZARO AHAMIYATI.

1.1. Bank xizmatlari turlari va ularning tashkil etilishi.

2002 yil 9 aprelda O`zbekiston Respublikasi TIF “Milliy bank” nomiga Osiyo va Tinch Okeani Taraqiyot moliya muassasalari assotsiatsiyasi (AFIRATO)dan «Texnologiyalarni rivojlantirish» nominatsiyasida O`zbekiston Respublikasi TIF “Milliy bank” tomonidan o`rtaga qo`yilgan «Mijozlarga masofadan turib elektron xizmat ko`rsatish tizimi» (R-Bank tizimi) bank mahsuloti uchun TIF “Milliy bank” g`alabaga erishgani va unga mukofot berilgani to`g`risida rasmiy xabar keldi.

Mukofotlash marosimi 2002 yil 14 maydan 16 maygacha bo`lgan davrda AFIRATO 25-yillik konferensiyasi va Bosh asambleyasini o`tkazish chog`idagi Tantanali kechada amalga oshirildi.

O`zbekiston Respublikasi TIF “Milliy bank” eng oliy xalqaro andozalarga javob bera oladigan eng zamonaviy bank xizmatlaridan birini – mijozlarga masofadan turib xizmat ko`rsatish tizimini – “Bank-Mijoz” dasturiy majmuasini ishlab chiqdi va joriy etdi.

“Bank-Mijoz” dasturiy majmuasi (keyingi o`rinlarda – “Bank-Mijoz” DM) Bank bilan mijozning avtomatlashtirilgan o`zaro munosabatlariga mo`ljallangan bo`lib, pul mablag`larini boshqarishdagi operativlikni oshirishga ko`maklashadi va quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- Mijoz bankka kundalik tashrifidan voz kechishi evaziga o`z vaqti va mablag`ini tejaydi;
- Mijoz hududiy yaqinligiga qaramay bankni tanlaydi;
- Mijozning uyida yoki ofisida avtomatlashtirilgan ish joyini yaratish vositasida bank unga o`z xizmatlarini ko`rsatadi;
- Bank Mijozga ko`rsatilayotgan axborot va operatsiya xizmatlari ro`yxatini kengaytiradi;

- Bank buxgalterlari mehnati samaradorligini oshiradi;
- Operatsiyalarni ro'yxatga olishda yuksak operativlik va sifatni ta'minlaydi.

Endi mijozning har kuni bankka kelishiga zarurat yo'q – bank xizmatlaridan to'g'ridan-to'g'ri ofisda yoki uyda foydalanish mumkin.

Internet-banking - Bankka borish uchun ketadigan vaqtingiz va sarf-xarajatlaringizni ancha tejaydi va mutlaqo bankning qayerda joylashuviga bog'liq qilib qo'ymaydi.

Internet-banking bo'yicha xizmatlar doirasi bankning barcha asosiy xizmatlarini – to'lovlarni amalga oshirish, o'z bank hisobvaraqlari holati, ular bo'yicha kiruvchi va chiquvchi to'lovlar to'g'risida batafsil axborot olish, bankning tegishli xizmatlari bilan amaliy yozishmalar yuritish kabi xizmatlarni o'z ichiga oladi.

“Bank-Mijoz” DMdagi barcha axborot elektron hujjat ko'rinishida taqdim etilgan bo'lib, kompyuterlarning xotirasida saqlanadi va elektron kanallar bo'yicha jo'natiladi.

Mijozning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan elektron ko'rinishidagi to'lov hujjatlarining Bank tomonidan olinishi yuridik jihatdan qog'ozdagi to'lov hujjatlarini olish bilan barobardir.

Mijozga xizmat ko'rsatish vaqti maksimal darajada kengayadi. Tizimdan Foydalanuvchilar uchun Bank xizmatlari kuniga 24 soat va haftasiga 7 kun amalga oshiriladi.

Elektron hujjatning qog'ozdagi nusxasini har doim olish mumkin. Mijozlar biznesini kuchaytirish – TIF “Milliy bank” ning ustuvor vazifalaridan biri.

O'zbekiston Respublikasi TIF “Milliy bank” o'z mijozlariga yuksak texnologiyalarga asoslangan eng yangi axborot xizmatini taqdim etadi.

Mijozni R-Bank tizimiga ulash protsedurasi Mijozni R-Bank tizimida xizmat ko'rsatishga ulash protsedurasi quyidagi izchil xatti-harakatlardan iboratdir:

- Bankda R-Bank tizimini Mijozga qisqacha namoyish qilish;
- Mijozni xizmat ko'rsatish tariflari bilan tanishtirish;
- tizimga ulanish uchun zarur materiallar (Ariza, Namunaviy shartnoma, R-Bank tizimidan foydalanuvchi uchun qo'llanma) ni Mijozga berish;
- Mijoz R-Bank tizimida xizmat ko'rsatish to'g'risidagi arizani to'ldirishi (Ariza namunasi);
- Bank bilan Mijoz o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan, R-Bank tizimida xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnomani tuzish. Bu shartnomani Mijoz R-Bankda xizmat ko'rsatiladigan hisobvaraqlar turgan har bir tarkibiy bo'linma bilan tuzadi;
- Xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma asosida Mijoz Tizimda ro'yxatga olinadi:

- 1) Tizimda Mijozni ochish;
- 2) Mijozning huquqlari va profilini aniqlash;
- 3) Mijozning shu bo'limda ochilgan va R-Bank tizimida ro'yxatga olinishi kerak bo'lgan hisobvaraqlarini sozlash;
- 4) Mijoz foydalanuvchilarning (ma'mur yoki Raqamli Elektron Imzo huquqiga ega bo'lgan shaxslarning) huquqlarini ro'yxatdan o'tkazishi va sozlashi;
- 5) Mijozning imzolar namunalari kartochkasiga muvofiq, Mijoz Raqamli Elektron Imzosining parametrlarini aniqlash: REI soni, REI huquqiga ega foydalanuvchilar ro'yxati va ular imzolarining darajasi;
- 6) bo'limda mazkur Mijoz uchun quyidagi turlar bo'yicha mas'ul ijrochilarni belgilash: xatlar, huquqlar, REI kalitlarini boshqarish, to'lov topshiriqnomalari.
 - Mijozning bir-ikki vakilini Bank hududida tizimda ishlashga o'rgatish;
 - Mijoz tizimga ulanishga tayyorligini tasdiqlaydi va unikiga mutaxassis boradigan muddatni belgilaydi (og'zaki yoki yozma);
 - Mijoz REI kalitlarini hosil qiladi, REI sertifikatlarini qog'ozga chiqariladi, ularni Mijoz va Bank imzolaydi, REI kalitlari faollashtiriladi;

- Bank mutaxassisi Mijoz kompyuteriga dasturni kiritish, sinov tariqasida aloqa seanslarini o'tkazish, tizim bilan ishlashning texnik jihatlarini o'rgatish, sinov maqsadida to'lovlar o'tkazib ko'rish, Foydanishning boshlangani haqida dalolatnoma tuzish uchun Mijozning ofisiga boradi.

Bank-mijoz dasturiy tuzilmasi quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- Mijozning joylashgan joyida bank xizmatini ko'rsatish;
- Bank hisob operatsiyalarini o'tkazishda mijozlarga qulay sharoit yaratish;
- Mijozlar vaqtini tejash hamda bank filiallariga borish zaruratini yo'qotish.
- Bank bilan modem aloqasi orqali axborotlar almashish amalga oshiriladi, natijada ixtiyoriy geografik uzoqlikda bo'lgan banklar bilan ishlash imkonini beradi.
- “Bank-mijoz” dasturida axborotlar kriptografik himoyalangan va dastur mijozni bank xujjatlarini yuritish uchun xizmat qiladi. Mijozning bankdagi shaxsiy hisob-raqami va xujjatlari haqida aniq ishonarli axborotga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Dastur bank xujjatlarini to'g'ri to'ldirishga yordam berib, u xujjatlarning arxivini yuritadi. “Bank-mijoz” dasturiy tuzilmasi quyidagi hisobotlarni tayyorlaydi:

- Xujjatlar opisi (xujjatlar haqidagi ma'lumotlarni, mijozning bankdagi kunlik hisob operatsiyasi);
- Ko'chirma (mijozning hisob raqamidagi harakatlari haqida axborot);
- Saldo — aylanma vedomosti (mijozning hisob raqami aylanmasi va qoldiq hisob haqidagi axborot).

Axborot texnologiyalari – bank sohasida. Yurtimiz bank tizimida INTERNET-TIJORAT, zamonaviy asosida mijozlarga masofadan xizmat ko'rsatish barqaror rivojlanmoqda. Mahalliy banklar tomonidan chiqarilayotgan plastik kartochkalar bugunga kelib to'lovni amalga oshirishning ishonchli va keng ommalashib borayotgan turiga aylandi. ON-LINE do'konlar faoliyati kengayib ularda

xalqaro tizimdagi plastik kartochkalar bilan to'lovlar amalga oshirish imkoniyati yuzaga kelmoqda.

Tijorat banklari jismoniy shaxslar uchun ON-LINE BANKING xizmatini taklif qilmoqdalar, bu esa bank mijozlariga o'z hisob raqamlarini boshqarish va internet tarmog'i yoki mobil aloqa orqali uzoq masofada turgan holda to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. Bir qancha banklar tomonidan taqdim etilgan sms-banking xizmati hisobraqamining holati, amaliyot tarixi haqidagi ma'lumotlarni olish imkoniyatini beradi.

Quvonarlisi shundaki plastik kartochkalar faqat naqd pul yechib olish uchungina emas balki, ko'proq hollarada savdo va xizmat ko'rsatish shahobchalarida to'lovni amalga oshirish vositasi sifatida qo'llab kelinmoqda. Mahalliy banklarning muomalaga chiqarilayotgan so'mdagi plastik kartochkalarining soni oshishi bilan savdo shahobchalarida bunday kartochkalar bilan to'lovlarni qabul qilish uchun terminallar soni ham ortmoqda. Barcha terminallar yagona respublika protsessing markaziga birlashgan va ular bo'yicha tranzaksiyalarga UZKART tizimida ishlov beriladi. 2013 yil 22 mayda Milliy Matbuot markazida Markaziy bank tomonidan "Zamonaviy bank xizmatlari rivojlanishi istiqbollari" mavzusida o'tkazilgan matbuot anjumani Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish istiqbollariga qaratilgan bo'lib, bunday xizmat turlarini yanada kengroq ommaga taqdim etish masalalari ko'rib chiqildi.

Bizga ma'lumki, iqtisodiyotda hisob-kitoblar mexanizmining yaxshi yo'lga qo'yilishi va uning aniq faoliyat yuritishi – barcha rivojlangan davlatlar taraqqiyotining asosiy poydevori hisoblanadi. Har qanday davlatning iqtisodiy qudratini yuqori samaraga ega bo'lgan pul tizimi va zamonaviy to'lov mexanizmlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bilan birga, davlat har qanday to'lovlarning banklar orqali amalga oshirilishi, ya'ni naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini kengaytirib borishdan doimiy manfaatdor hisoblanadi.

Jumladan, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida» gi Qonuniga muvofiq respublikamizda hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil qilish Markaziy bankning asosiy vazifalaridan biri etib belgilangan. Bu borada

zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini keng ko'lamda tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bozor munosabatlarining sub'ektlari o'rtasida hisob-kitoblar mexanizmini tashkil etish, to'lovlar uzluksizligi va bir maromda o'tishini ta'minlash bozor iqtisodiyoti faoliyatining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining “Elektron to'lovlar to'g'risida” gi Qonunining 4-moddasiga muvofiq hozirgi kunda Markaziy bankning yagona banklararo to'lov tizimi, 29 ta tijorat banklarining ichki to'lov tizimlari, shuningdek, bank kartalari bo'yicha barcha tijorat banklarini qamrab olgan “Uz-Kart” banklararo chakana to'lov tizimi, aholidan uyali aloqa xizmati, kommunal va boshqa to'lovlarni qabul qilish bo'yicha “Uz-Paynet” to'lov agentlik tarmog'i hamda “sms - to'lov” chakana to'lov tizimlari faoliyat yuritmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida” 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori 1-ilovasi 17-bandida ijrosini ta'minlash yuzasidan 2011 yildan boshlab barcha tijorat banklarida bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari, jumladan “Internet-banking” xizmati joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida” PQ-1438-sonli Qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar majmuasining 1-ilovasi 17-bandida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 martdagi “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” 1730-sonli Qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida 2012-2014 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish dasturi 1-ilovasi 17-bandida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil

18 iyuldagi “Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4455-sonli Farmoni talablarining ijrosini ta'minlash yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- kichik biznes sub'ektlari – mikrofirmalar tomonidan zamonaviy va qulay bank xizmatlari, jumladan bank hisobvaraqlariga masofadan turib xizmat ko'rsatish tizimlaridan keng ko'lamda foydalanish uchun shart-sharoit yaratilib, ushbu tizimdan foydalanish doimiy ravishda kengaytirilmoqda;
- ular tomonidan respublika va mahalliy byudjetga to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni bank hisobvaraqlariga masofadan turib xizmat ko'rsatish tizimlari orqali to'lash imkoniyati yaratildi;
- bank hisobvaraqlariga masofadan turib xizmat ko'rsatish tizimlaridan foydalanib, to'lovlarni amalga oshirayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan ularning hisobvarag'iga xizmat ko'rsatganlik uchun undiriladigan (ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha abonent va vositachilik haqlari) to'lovlarni 20 foizga kamaytirilgan;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, jumladan kichik biznes sub'ektlari uchun bank hisobvaraqlariga masofadan turib xizmat ko'rsatish tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari to'g'risida doimiy targ'ibot ishlari olib borilmoqda.
- Mamlakatimizda keyingi yillarda internet va mobil banking tizimlarini joriy etish borasida muayyan ishlar olib borilmoqda. Ushbu turdagi bank xizmatlari tadbiq etish bank uchun ham, mijoz uchun ham qo'shimcha qulayliklar yaratadi.

Jumladan, mijoz o'z hisobvarag'i bo'yicha bank amallarini bankka bormasdan, Internet orqali hohlagan joyidan, hohlagan vaqtda bajarish imkoniyatiga ega bo'lib, hisobvarag'ining holati, mablag'ning kelib tushishi, to'lovlarning aks ettirilishi kabi amallar haqida ma'lumotlarni olishi mumkin. Bu esa mijozni o'z vaqti va mablag'ini tejashga, manzilning uzoq-yaqinligiga qaramasdan bankni

ixtiyoriy ravishda tanlashi va o'z mablag'larini tezkor boshqarish afzalliklarini yaratadi.

Hozirgi kunda bank hisobvaraqlariga masofadan turib xizmat ko'rsatish tizimlaridan foydalanuvchilar soni 2013 yil 1 may holatiga 163 294 tani tashkil etib, Shundan 119 229 tasi sms-banking va mobil-banking xizmatlaridan foydalanishsa, 44 065 tasi internet banking va bank mijoz tizimlaridan foydalanishmoqda.

“Uz-Paynet” chakana to'lov tizimi 2005 yilda tashkil qilingan bo'lib, hozirgi kunda 25 mingdan ortiq to'lov agentlari mavjud. Mazkur chakana to'lov tizimi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 21 aprelda 2099-son bilan davlat ro'yxatiga olingan “To'lov agentlik tarmog'i orqali jismoniy shaxslarning to'lovlarini qabul qilish tartibi to'g'risida”gi Nizom talablari asosida faoliyat yuritib kelmoqda. Hozirgi kunda “Uz-Paynet” to'lov agentlik tarmog'i orqali bir kunda o'rtacha tranzaksiyalar soni 2,5-3 mln.tani va o'rtacha tranzaksiyalar summasi 7-8 mlrd so'mni tashkil etmoqda.

Shuningdek, “sms – to'lov” chakana to'lov tizimi 2011-yilda o'z faoliyatini boshlagan bo'lib, tizimga 12 ta tijorat banklari to'lov tizimi a'zosi sifatida ulangan. Boshqa banklar tomonidan ushbu tizimga ulanish bo'yicha sinov ishlari amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda mazkur tizim orqali 20 dan ortiq xizmat ko'rsatuvchilar uchun to'lovlar amalga oshirilishi mumkin.

Bundan tashqari, to'lov tizimini rivojlantirish bevosita axborot-telekommunikatsiya sohasi bilan bog'liq bo'lganligi sababli, bu sohada dunyoda ro'y berayotgan yangiliklar ham inobatga olinishi zarur.

Shu o'rinda muhtaram Prezidentimizning “Bankdan tashqari pul aylanmasini keskin qisqartirish va pul muomalasini mustahkamlash, milliy valyuta barqarorligini oshirish, chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida hisob-kitoblarni amalga oshirishda plastik kartochkalardan foydalanishni kengaytirish masalalari bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'lishi darkor” degan so'zlariga diqqatingizni qaratmoqchi edim.

Shu munosabat bilan, mamlakatimizda hisob-kitoblarni amalga oshirishda

bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari, jumladan plastik kartochkalar, internet-banking, mobil-banking va sms- banking kabi tizimlardan keng foydalanish, ushbu tizimlarni takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan omillarni chuqur tahlil qilish, ayniqsa mazkur sohadagi ilmiy-nazariy fikrlar va qarashlarni hamda xorij tajribasini batafsil sinchiklab o'rganib amaliyotga tadbiq qilish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi bilan birgalikda “Banklararo to'lov tizimi va bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari masalalari bo'yicha tijorat banklarining mutaxassislari uchun maxsus seminarlar dasturi” ishlab chiqildi. Mazkur dasturga muvofiq, amaliy seminarlar doimiy ravishda har oyda bir marta o'tkazilmoqda.

Shuningdek, hududlarda to'lov tizimini samarali tashkil etish va zamonaviy bank xizmatlari mavzularida kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini jalb qilgan holda amaliy seminar va davra suhbatlari doimiy ravishda tashkil etib borilmoqda. Shu bilan birga, Markaziy bank tomonidan “2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimida Boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha axborot tizimlarini joriy etish hamda interaktiv xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish Kontseptsiyasi” ishlab chiqilib tasdiqlandi.

Mazkur kontseptsiyaga muvofiq, bank mijozlarining, jumladan aholi turmush darajasini o'stirishga imkon yaratuvchi axborot almashuv tizimlarini rivojlantirish va takomillashtirish, bank tizimi tomonidan ko'rsatiladigan interaktiv xizmat turlarini kengaytirish asosiy vazifa etib belgilandi.

Jumladan quyidagi masalalarni amalga oshirilishiga alohida e'tibor qaratildi:

- chakana savdo va pullik xizmat ko'rsatish shoxobchalarida o'rnatilgan to'lov terminallari orqali “VISA”, “DUET” yoki “ON-LINE” tizimida muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalaridan qat'iy nazar, ular orqali uzluksiz to'lovlarni qabul qilish imkonini beruvchi dasturiy ta'minotni joriy etish;

- to'lov terminallarining savdo kartalarini savdo va pullik xizmatlar ko'rsatish shoxobchalari joylashgan joyning o'zida inkassatsiya qilinishini ta'minlovchi dasturiy ta'minotni yaratish;
- yagona umumrespublika protsessing markazi tomonidan banklararo plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan to'lovlarni bir bank ish kunidan kechiktirmagan holda banklardagi tegishli hisobvaraqlarda aks ettirilishini ta'minlash;
- bank plastik kartochkalaridagi mablag'lar butligini ta'minlash maqsadida yo'qotilgan kartochkalarni «on-line» tizimini joriy etish orqali zudlik bilan blokirovka qilinishini ta'minlash yuzasidan zarur choralarni ko'rish;
- internet tarmog'i orqali elektron tijorat doirasida amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarni bank kartalari yordamida bajarish imkonini beruvchi dasturiy ta'minotni joriy etish.

Bundan tashqari, hozirgi kunda axborot texnologiyalari infratuzilmasining avtomatlashtirilgan boshqarish va monitoring tizimini yaratish ishlari olib borilmoqda. Bunda lokal hisoblash tarmog'idagi mavjud texnika jihozlarining ish unumdorligi va hisobini yuritish, tizimlarda yuzaga keladigan nosozlik holatlarini aniqlash, tegishli dasturiy ta'minotni masofadan turib o'rnatish hamda tarmoq xizmatining sifat ko'rsatkichlarini markazlashgan holda nazorat qilish kabi funktsiyalar ko'zda tutilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mustaqilligimizning keyingi yillarida respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, zamonaviy bank xizmat turlarini jadal suratlarda rivojlantirish maqsadida, yanada ko'p sonli mijozlarni taklif qilish, ularga har xil qulayliklar yaratib berish, bu sohaning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha olib borilayotgan ishlar barcha banklar tomonidan tizimli amalga oshirilishi, elektron to'lovlar va elektron tijorat bo'yicha axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish bank mijozlariga sifatli bank xizmatlarini ko'rsatishni ta'minlash bilan birga, O'zbekiston bank tizimining muqarrar yuksalishiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatishi

shubhasiz.

1.2 Bank va mijoz sherikchilik munosabatlarining o`zaro ahamiyati va o`rni.

Xozirgi kundagi eng zamonaviy bank xizmatlaridan biri mijozlarga olis masofadan turib xizmat ko`rsatishdir. «Bank-Mijoz» deb nomlangan bu tizim eng yuksak xalkaro andozalarga mosdir.

«Bank-Mijoz» tizimi bo`yicha ko`rsatiladigan xizmatlar doirasi bank xizmatlarining barcha asosiy turlarini o`z ichiga oladi. Bular, xususan, to`lovlar o`tkazish, bankdagi xisobvaraqlar xolati, ulardagi tushumlar va chiqimlar to`grisida mufassal axborot olish, bankning tegishli xizmatlari bilan amaliy yozishmalar olib borish kabilardir.

«Bank-Mijoz» tizimi bank oldidagi quyidagi masalalarini hal qilish uchun ishlatiladi:

- mijoz uchun navbatga turishga xojat qolmaydi;
- mijoz uchun bankning operastiyalar zaliga kelish xarajatlari bo`lmaydi;
- mijoz hisob raqamidagi operastiyalarni amalga oshirish vaqtini kamaytiradi;
- xujjatlarni kompyuterga kiritishdagi, tekshirishdagi va qayta ishlashdagi xatoliklarga yul kuyilishi, xatarini kamaytiradi;
- bank xodimini mehnati yengillashadi va ish sifati oshadi;
- mijoz uchun keng ko`lamdagi xizmat turlari taklif qilinadi va bu xizmat turlari rivojlantiriladi;
- mijozlar bankdan sutkasiga 24 soat mobaynida va xaftasiga 7 kun mobaynida ma'lumot olishlari mumkin va buning uchun bankda 1 smenali ishni tashkil etilishi shart emas;
- bankni rivojlantirish uchun, qo`shimcha investistiyalar qilmasdan mijozlarni jalb qilish.

Shu bilan birga mijoz quyidagi imkoniyatlarga ega:

- bank bilan kelishgan xolda bu tizimga bog`langan ishchi uchun ish joyiga, uyiga, yoki maxsus xizmat kursatish punktlariga o`rnatib berish;
- bankga kelib ketish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlari kamayishi;
- xujjatlar tuldirilayotgandagi xatoliklarga yo`l qo`yilmaslik xavfini kamaytirish;
- ishonchli va xavf-xatarsiz bank operastiyalarini amalga oshirish va uning natijasini tezda ko`rish;
- xisobraqami to`grisida, kiruvchi va chikuvchi tulovlar xaqidagi aniq va ishonchli ma`lumotlarni olish ;
- bank xaqidagi xar xil ma`lumotlarni olish;
- bankqaerda joylashgani emas, balki u qay darajada xizmat ko`rsatishi zarur.«Bank-Mijoz» tizimidagi xujjatlar aylanishi bu oddiy qog`ozli xujjat aylanishining texnika vositalari orqali amalga oshirish vositasidir.

Elektron xujjat aylanishi - bu qog`oz xujjatlar ishlatmasdan kompyuter orqali axborot almashish va uni qayta ishlashdir. Elektron xujjat aylanishidan foydalanganda axborotni qayta ishlanishi tezlashadi va aniqlashadi, ushbu axborotlarni xajmi kattalashshib ketmasligi uchun qo`shimcha axborotlar olish uchun manbalar ochiladi.

Bundan tashqari, xujjatlar qalbakilanishining oldi olinadi va buxujjatlarning haqiqiyligiga ishonch xosil bo`ladi.

Ushbu tizim mijoz uchun, bankning Web-serveriga ulanib, u orqali On-line rejimida bank operastiyalarini amalga oshirish, va qo`shimcha axborotlar olish imkonini beradi.

Aloqa vositasi sifatida oddiy telefondan foydalanish mumkin. Programma ta`minoti sifatida standart Web-Brayzer Microsoft Internet Exploier dasturidan foydalanish mumkin. Mijozda xech qanday qo`shimcha bank dasturlari bo`lmaydi va xech qanday baza ma`lumotlari saqlanmaydi. Hamma programma ta`minoti, biznes mantiq va baza ma`lumotlari bankning R-Bank tizimi bilan bank serverida saqlanadi. Mijoz qachon bank bilan bog`lansa,

o`shanda barcha ishlarini amalga oshirishi mumkin.

«Bank-Mijoz» tizimi bu mijoz va bank o`rtasidagi ximoyalangan Elektron xujjatlar almashishning Web - texnologiyalar asosida yaratilgan tizimidir.

«Bank-Mijoz» tizimida mijoz operativ xolatda On-line rejimida o`zining xisobvaraqlarini boshqaradi, bankdan joriy xajmdagi xisobraqamidagi qoldik haqida ma`lumot olish va ulardan ko`chirmalar qilish, boshqa xar xil vaqtlar uchun ko`chirmalar qilish imkoni va boshqa moliyaviy ma`lumotlar olish imkonini beradi.

Ushbu tizim mijoz uchun, bank ichidagi va bank tashqarisidagi barcha to`lovlarni amalga oshirish va asosiy to`lov xujjatlari bilan ishlash imkonini beradi:

1. Milliy valyutada:

- to`lov topshiriqnomasi;
- to`lov topshiriqnomasini qaytarib olish;

2. Chet el valyutasida:

- valyutani ko`chirish uchun ariza;
- valyutani majburiy sotish uchun topshiriqnoma;
- valyuta sotish uchun ariza;
- valyuta sotib olish uchun ariza;
- akkreditiv uchun ariza.

Mijoz tizim bilan xohlagan vaqtida, xohlagan joyidan turib, mehmonxonadami, uyidami, ishxonasidami, yoki boshqa shaharda bo`lsa xam sistemaga ulangan kompyuteri va modem orqali to`lovlarni amalga oshirishi mumkin. Ushbu tizim ko`pchilik tomonidan birdaniga foydalansa bo`ladigan imkonga ega, ya`ni mijoz tomonidan xam bank tomonidan xam To`lov xujjatlarini bir yerda to`ldirib buxgalter, yoki direktor boshqa yerdan turib imzolashi xam mumkin.

Ushbu tizim yuqori darajali himoyaga ega bo`lib, aloqa yo`llari orqali mijoz tomonidan, yoki bank tomonidan noqonuniy kirishlardan himoyalangan. Mijoz va bank tomonidan kiritilgan axborotlar shifrlanadi va elektron imzo

bilan tasdiklanadi.

Xisob-kitoblarni «Bank-Mijoz» tizimi orqali o`tkazish tartibi. Uzbekistonda bank tizimi rivojlanib borgan sari banklar tomonidan mijozlarga xizmat ko`rsatish sifati yaxshilanmoqda, ularga yangi bank xizmatlari taklif etilmoqda. Shulardan biri yangi texnologiya bo`lib xisoblangan «Bank-Mijoz» dasturi bo`yicha xisoblangan kitoblar O`zbekistan Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 1998-yil 497-sonli qarori bilan ro`yxatga olingan, O`zbekistan Respublikasi Markaziy Banki Boshqaruvi tomonidan 1998-yil 27-iyunda 402-son bilan tasdiqlangan « Xisob-kitoblarni « Bank-Mijoz » dasturiy majmuasi orqali amalga oshirish tug`risida » gi Nizom asosida olib boriladi. “Bank mijoz” dasturiy majmuasi (dastur) bank va mijozning avtomatlashtirilgan o`zaro aloqasi uchun belgilangan bo`lib, pul mablag`larining operativ boshqarishning o`shishiga va quyidagilarga imkoniyatlar yaratadi:

- mijozning xar kuni bankka qatnamasligi xisobiga o`z vaqtini va mablag`ini tejashga;
- manzilning uzoq, yaqinligiga qaramasdan mijozning bankni o`zi ixtiyoriy ravishda tanlashiga;
- bank mijozlari bo`lgan fuqarolarga, ularning uyida, yuridik tashkilotlarga esa, ularning idoralarida avtomatlashtirilgan ish joyini tashkil qilgan xolda, bank xizmatini ko`rsatishga, operastion va axborotlar soxasida mijozga ko`rsatiladigan xizmat doirasini kengaytirishga;
- bank buxgalterlarining mexnat unumdorligini oshirishga, operastiyalarning yuqori tezlikda va sifatli ro`yxat qilinishini ta`minlashga.

Bank mijoz dasturiy majmuasining ishlashi bank bilan mijoz o`rtasida kommunikastion aloqa tarmog`i orqali faydali ma`lumotlar almashinuviga asoslangan. Mijozlar bilan ma`lumotlarni almashish uchun bankda mijozlar uchun pochta qutisi tashkil qilinadi, unga parol va identifikator orqali kiriladi.


Mijozlarning so`rovlarini qayta ishlash, ma`lumotlarni qabul qilish, uzatish avtomatlashgan xolda, amalga oshiriladi.

Bank mijoz dasturining asosiy vazifalari quyidagilar xisoblanadi:

- elektron pul xisob-kitob xujjatlarini tayyorlash;
- so'rovnomlar va xabarnomalarni shakllantirish;
- elektron imzo va ma'lumotlarni raqamlash;
- bank bilan modem aloqasi, ma'lumotlarni qabul qilish va uzatish;
- qabul qilingan ma'lumotlarni qayta ishlash;
- kerakli ma'lumot va xisobot shakllarni qayta ishlash;
- kerakli ma'lumot va xisobot shakllarini bosmadan chiqarish;
- ma'lumotlarni arxivlash.

Bank tizimida innovatsion axborot texnologiyalarini keng ko'lamda tadbiq etish mamlakatimizda qisqa muddatda milliy to'lov tizimini shakllantirishga imkoniyat yaratdi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida hisob-kitoblarni aniq vaqt rejimida amalga oshiruvchi bu tizim mamlakatimiz moliya bozori barqarorligini ta'minlamoqda. Bundan tashqari u davlatimiz pul-kredit siyosatini samarali yuritish, milliy va xalqaro to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish, pul oqimlarini boshqarishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.


Mijozlarning elektron pul xisob-kitob xujjatlarini bankning ma'lumotlar bazasiga kiritish quyidagi sxema bo'yicha amalga oshiriladi:



1-rasm. Xujjatlarni ma'lumot bazasiga kiritish ²

² www.lex.uz. Internet sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

Bank mijoz dasturi bankning shaxsiy mulki hisoblanadi. Bank mijozlari ushbu dasturning asosiy foydalanuvchilari hisoblanib, ular munosabatlari tartibga solinishi uchun shartnoma tuziladi. Lekin “Bank mijoz” dasturi orqali operatsiyalarni amalga oshirishdan avval mijozlar bir qator texnik vositalar bilan ta’minlangan bo’lishi lozim.



2- rasm. Mijoz uchun talab etiladigan texnik vositalar ³

Shunday qilib, sxemada ko’rib turganimizdek, dasturiy majmuaga ulanishlari uchun mijozlarda quyidagilar bo’lishi talab etiladi:

- shaxsiy kompyuter;
- modem;
- printer;
- mos dasturiy ta’minot, ya’ni Windows 98, 2000; Win NT4, NT Server, Windows XP, Millennium va xokazolardan biri.

Elektron pul xisob xujjatlarining to’g’ri shakllantirilishi, shifrlanishi va ularning aloqa kanallari orqali bankka uzatilishi bo’yicha javobgarlik mijoz zimmasiga yuklatiladi.

Zamonaviy texnologiyalar bank biznesining yangi ufqlarini ochmoqda. Joriy yilning 22-mayida O'zbekiston Respublikasi Milliy Matbuot markazida respublika Markaziy banki tomonidan “Zamonaviy bank xizmatlari rivojlanishi istiqbollari” mavzusida matbuot anjumani tashkil etildi.

³ www.lex.uz. Internet sayti ma’lumotlaridan foydalanildi.

Masofaviy bank xizmatlari ko'rsatishni bankomat va infokiosklarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Foydalanishi sodda bo'lgan ushbu uskunalar bugungi kunda mijoz va kassir o'rtasidagi an'anaviy muomalaga chek qo'yib, o'ziga xos minibank - ofis vazifasini o'tamoqda. Hozirgi paytda bankomatlardan nafaqat naqd pul yechib olish, balki ular orqali tovar va xizmatlar bo'yicha turli to'lovlarni amalga oshirish mumkin. Shuni qayd etish o'rinliki, mijozlar istalgan bank bankomatlaridan va infokiosklaridan foydalana oladilar. Ayni paytda respublikamiz bo'yicha "Smart-Vista", on-line, "DUET" tizimidagi kartochkalarga xizmat ko'rsatadigan bankomat va infokiosklar soni 1466 tani tashkil etib, ular yagona tarmoqqa ulangan. Bugungi kunda respublikamizda muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar soni 9,7 mln. donani tashkil etmoqda. Plastik kartochkalar soni ko'payishiga mos ravishda terminallar soni ham oshib bormoqda. Aholi gavjum bo'lgan joylar va savdo do'konlari, xizmat ko'rsatish ob'ektlariga o'rnatilgan terminallar soni shu yil boshiga kelib salkam 116 mingtani tashkil etdi. Plastik kartochkalar yordamida amalga oshirilayotgan operatsiyalar turi va soni ham sezilarli darajada o'sib bormoqda. O'tgan yili plastik kartochkalar vositasida salkam 8,7 trln. so'm hajmida har xil naqd pulsiz to'lovlar o'tkazildi yoki ushbu ko'rsatkichning yil davomida 50 foiz o'sishi ta'minlandi.

Naqd pulsiz to'lovlar hajmining o'sish dinamikasi birinchi navbatda, tovar va xizmatlar uchun to'lovlarning bankomatlar orqali amalga oshirilishi, plastik kartalar vositasida ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lami va infrastrukturasining kengayishi bilan chambarchas bog'liqdir. To'lovlarni naqd pulsiz amalga oshirishning innovatsion shakllariga bo'lgan ehtiyoj muttasil ortib bormoqda. Tadbirkorlik sub'ektlari va aholi tejamli, kam vaqt va harakat sarflagan, yuqori axborot texnologiyalaridan foydalangan holda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, ma'lumot olishga ko'proq ishtiyoq bildirmoqda. Mana shu ehtiyojni inobatga olib, tijorat banklari masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish ko'lamini kengaytirishga, bunda global Internet tarmog'i imkoniyatlaridan samarali foydalanish choralari ko'rib bormoqdalar. Aytib o'tish o'rinliki, ayni yo'nalish

jahon bank tizimi, uning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan TIF “Milliy banki” tizimining ustivor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ayni paytda barcha tijorat banklari Internet tarmog'ida o'zlarining web-saytlarini ochib, ular bank faoliyati, yangi xizmat turlari, shartlari, mijozlar manfaatiga tegishli ma'lumotlar bilan muntazam boyitib borilmoqda. Markaziy bank veb-sayti orqali esa davlat interaktiv xizmatlari ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Aholi o'rtasida mobil telefonlardan foydalanishning kengayib borishi banklar tomonidan mobil - banking (wap-banking), sms-banking xizmatlari yo'lga qo'yilishiga olib keldi. Hozirgi paytda 107 mingta mijoz ayni xizmat turlaridan foydalanmoqda. Aytish o'rinliki, shu yilning birinchi choragida banklarning ayni xizmat turlaridan foydalanuvchilar soni 50 foiz o'sishiga erishildi.

Ma'lumot uchun aytib o'tamiz, hozirgi kunda “Uz-Paynet” to'lov agentligi tarmog'i orqali bir kunda o'rtacha 2,5-3 mln. tranzaksiyalar o'tkazilmoqda. Shuningdek, 2011-yilda o'z faoliyatini boshlagan “Sms – to'lov” chakana to'lov tizimi orqali 20 dan ortiq to'lovlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tizimga tijorat banklari to'lov tizimi a'zosi sifatida ulangan.

Matbuot anjumani chog'ida jurnalistlarga elektron tijorat, kredit va debet kartalar, depozitlar va boshqa qulayliklar, zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatishni takomillashtirish borasida olib borilayotgan izlanishlar bo'yicha axborotlar berildi.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish joizki, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari (bank - mijoz, internet-banking, mobil-banking, sms-banking, boshqalar) ni respublika miqyosida doimiy kengaytirib borish bo'yicha ishlar barcha banklar tomonidan tizimli amalga oshirilishi milliy bank tizimining rivojlanish tendensiyalaridan guvohlik beradi va respublika iqtisodiyotida bozor mexanizmlarining mustahkamlanishiga sharoit yaratadi.

II-bob. TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARGA XIZMAT KO`RSATISHNING JORIY HOLATI TAHLILI.

2.1. Banklarning yangi xizmat turlari va ularni amalga oshirish tartibi.

Bank Sizga zamonaviy bank xizmati turlaridan biri hisoblangan «BANK-MIJOZ» elektron to'lov tizimi bilan tanishishni va undan foydalanishni taklif etadi.

«BANK-MIJOZ» — bu kompyuter dasturiy tizimi bo'lib, u mijozga ofisdan chiqmagan holda, kommunikatsiya aloqa kanallaridan foydalanish, o'zining bank hisobraqamini boshqarish va nazorat qilishda keng imkoniyatlarni yaratadi. Bank Siz bilan hamkorlik qilayotganda Sizga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- Jahon andozalariga mos bank xizmat turlaridan foydalanish
- Biznes faoliyatingizni tezkor boshqarish imkoniyatiga ega bo'lish;
Bank hisobraqamingiz holati haqida to'liq va tezkor ma'lumotga ega bo'lish;
- O'z faoliyatingiz natijalarini doimo kuzatib borish va tahlil qilish;
- Vaqt va moddiy resurslaringizni tejash.

«BANK-MIJOZ» dasturiy tizimi Sizga quyidagi qulayliklarni yaratadi:

- Ofisdan chiqmasdan to'lovlarni amalga oshirish imkoniyati evaziga vaqtingizni va mablag'ingizni tejash hamda real vaqt sharoitida to'lovlarni amalga oshirish;
- Hisob raqamlaringizning holati to'grisida batafsil ma'lumot olish;
Bankdan har qanday uzoqligingizdan qat'iy nazar, doimo hisob raqamingiz haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish.

Zamonaviy bank xizmati turlarida yan biri bu INTERNET BANKING xizmati hisoblanib, bu xizmat turi hozirgi kunga kelib bir qator banklarda kuzatilmoqda. Masalan : Internet-banking – bu Sizga o'z hisob raqamingizni Internet orqali boshqarib borishga imkon beradigan xizmatdir. Internet-banking

texnologiyasi bilan to'laonli ishlash uchun Sizga Internet tizimiga ulangan va Microsoft Internet Explorer brauzeri bor kompyuterga ega bo'lish kifoya.

Internet-banking quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- Bankga barcha turdagi moliyaviy hujjatlarni jo'natish.
- Istalgan davr uchun barcha hisob varaqalar bo'yicha ko'chirmalar va hujjatlar olish.
- Bankda to'lov hujjatlarini qayta ishlashning barcha bosqichlarini real vaqt rejimida kuzatib borish.
- Xatolar haqida tezkor ma'lumotlar olish. Bitta interfeysda turli banklardagi hisob varaqalari bilan ishlash.
- Kirayotgan va chiqayotgan to'lov hujjatlarini ko'rib va pechatlab borish.

Internet-banking afzalliklari. Sizning manzilingizga kelgan to'lovlar haqidagi axborotlar ularning bankga kelishiga qarab bir kunda bir necha marotaba yangilanib boriladi.

Qulayligi: Internet-bankingga ulanish juda soddadir (Buning faqat bizning bankda hisob raqamingiz bo'lishi va "Internet-banking" hamda elektron raqamli sertifikat tizimida xizmat ko'rsatish shartnomasi imzolangan bo'lishi kerak.

To'lov xabarnomalarini rasmiylashtirishda xatoga yo'l qo'yish mumkinligi haqida xavotirlanmaslik. Tizim hujjatlarni to'g'ri to'ldirilishini tubdan nazorat qilib, xatolarni ko'rsatib boradi. Xato to'ldirilgan hujjatni jo'natgan holatingizda ham Siz uni zudlik bilan to'xtatishingiz mumkin va unda hisob raqami bo'yicha operatsiya amalga oshirilmaydi.

On-line kartochkalari orqali mijozlar kartochka ichidagi pul mablag'ini avtomat ravishda yuklab olishlari mumkin. Eski oddiy DUET kartochkada esa mijoz kartochka ichidagi pul mablag'ini bankomatlar orqali yoki boshqa to'lov terminallar orqali yuklashlari kerak bo'ladi. On-line kartochkaning oddiy DUET kartochkadan farqli va qulay tomoni ham shunda hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi zamonaviy bank xizmatlari bilan taminlanganlik (01.02.2012 yil holatiga ko`ra)⁴

№	Banklar nomi	Bank mijoz xizmati	Internet banking xizmati
1.	TIF Milliy banki	+	-
2.	Xalq banki	+	+
3.	Agrobank	+	+
4.	Ipoteka banki	+	-
5.	O`zbekiston Sanoat qurilish banki	+	+
6.	Agrobank ochiq aksiyadorli tijorat banki	+	-
7.	Qishloq qurilish banki	+	-
8.	Turon bank	-	
9.	Mikrokreditbank	+	+
10.	Savdogar bank	+	+
11.	Aloqa bank	+	+
12.	Trastbank	+	+
13.	Ipak Yuli banki	+	+
14.	Hamkor bank	+	+
15.	Kapital bank	-	-
16.	Turkiston ochiq aksiyadorli tijorat banki	-	-
17.	Samarqand bank	-	+
18.	Universalbank	-	+
19.	Ravnaq bank	-	-
20.	Davr bank	-	-
21.	Kredit Standart bank	+	-
22.	UzKDB bank	-	+
23.	UT Bank	-	-
24.	“Royal Bank of Scotland Uzbekistan MB”	-	+
25.	Eron “Sedorot” banking	-	-
26.	Invest Finance bank	-	+
27.	“Amirbank	-	-
28.	«Asia Alliance bank	-	+
29.	"Hi-Tech BANK"	-	+

⁴ www.bpk.uz Internet sayti ma`lumotlaridan foydalanildi.

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bugungi kunga kelib mamlakatimiz tijorat banklarining 22 tasida zamonaviy bank xizmatlaridan: internet banking hamda bank mijoz dasturlaridan foydalanilmoqda, hamda ushbu xizmatlar orqali mijozlarga turli xizmatlar ko'rsatilmoqda. Ushbu ma'lumotlar 2012-yil holatiga olingan. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikamizda 29 ta bank faoliyat ko'rsatmoqda. Hozirda ushbu banklardan deyarli barchasida yangi xizmat turlari qo'llanilmoqda.

Yana shuni alohida aytib o'tish joizki, hattoki plastik kartochkalar bo'limida ham Internet tizimi juda yaxshi rivojlangan. Hozirda yangi plastik turlaridan biri ON-LINE plastiklarida ham mijozlar o'z hisobvaraqlaridagi mablag'ni internet orqali bilib olishlari yoki SMS orqali ham aniqlab olishlari mumkin. Bunda ular SMS banking tizimiga ulanishlari lozim bo'ladi. Ya'ni ulanganda, ishchilarga oylik maoshi yoki avans mablag'lari tushganda uning mobil telefoniga ON_LINE kartochkasi hisobiga pul yuklatilganligi haqida SMS xabar keladi. Bu mijozlar uchun ham bank uchun ham qulay. On-line kartochkalari orqali mijozlar kartochka ichidagi pul mablag'ini avtomat ravishda yuklab olishlari mumkin. Eski oddiy DUET kartochkada esa mijoz kartochka ichidagi pul mablag'ini bankomatlar orqali yoki boshqa to'lov terminallar orqali yuklashlari kerak bo'ladi. On-line kartochkaning oddiy DUET kartochkadan farqli va qulay tomoni ham shunda hisoblanadi.



3-rasm. Yuridik shaxslarning internet bankingga ulanish narxlari ⁵ (AQSH dollarida)

⁵ www.Internetbanking.uz Internet sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

Uqoridagi rasm ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki, hozirgi paytda internet bankingga ulanish narxi o`rtacha 10 dollardan boshlanib, 85 dollargacha belgilangan, eng past miqdordagi ulanish narxi ya`ni 15 dan 20 dollargacha Infin bank, Xalq banki hamda Ipak yuli banklarida kuztilmoqda, 33 dollar Turkiston bankida, Aloqa bankda 50 dollarga yaqin narx kuzatilmoqda, 80 dollardan ortiq miqdordagi summaga siz Savdogar bankining mijozi sifatida dastlabki a`zolik dastur o`rnatish badalini to`laysiz. Shundan so`ng mijoz internet banking dasturiga a`zo bo`ladi.

Foydalanishning osonligi - Internet orqali o`z hisob raqamingizni boshqarish uchun alohida o`ziga xos bilim yoki qobiliyatga ega bo`lishingiz shart emas.

Tezligi: Mijoz va bank o`rtasidagi hisob-kitoblar real vaqt rejimida amalga oshiriladi. Siz bankda to`lov hujjatlarini qayta ishlash bosqichlarini kompyuteringiz ekrani orqali kuzatib borasiz.

2-JADVAL


Mamlakatimizda internet banking xizmatlaridan foydalanishni ma`qul ko`rmaslikning asosiy sabablari (foizda) ⁶

Xavfsizlikdan havotir olish	26 %
Internet servisidan qoniqmaslik	22 %
Shaxsiy aloqani ma`qul ko`rish	21 %
Xususiylilik haqidagi tashvish	6 %
Bankning hech bir mijozi internet xizmati ko`rsatmasligi	5 %
Internet banking sistemasida ishlashni bilmaslik	5 %

Jadval ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki, mamlakatimizda ham Internet banking tizimiga ishonmay, uni ma`qul ko`rmaydigan mijozlar salmog`i ham

⁶www. Internet banking.uz Internet sayti ma`lumotlaridan foydalanildi.

ko'pchilikni tashkil qilmoqda. Bunga asos qilib quyida turgan 2-rasmni ko'rishimiz mumkin. Ya'ni Internet banking istiqboli 3 ta sinfga bo'lingan, bunda: Istiqbolga ishonadiganlar, ishonmaydiganlar va bunga javob bera olmaydiganlar.



4-rasm. Internet banking istiqboli (foizda).⁷

Internet-banking tizimi bilan ishlash: «Internet-Bank» tizimi mijozning o'z bank bo'linmasi bilan real vaqt rejimida masofadan turib aloqa bog'lanishi uchun mo'ljallangan. Ishlash davomida mijoz quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

- O'z hisobraqamlarining holatini kuzatish;
- Hisobraqamlariga pul mablag'lari kelib tushishi haqidagi axborotni tezkor olish;

⁷ www.ebank.uz Internet sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

- To'lov hujjatlarini kiritish va Bankka jo'natish. Bunda hujjatlar darhol bank axborot bazasiga yozib olinadi va ularga keyingi ishlov berish mumkin bo'ladi, turli vaqt oraliqlari uchun va mezonlarning keng ko'lami bo'yicha, shaxsiy hisobvaraqlari bo'yicha ko'chirmalarni, saldo-aylanma qaydnomalarni, hisobraqamlarning ishlashi yuzasidan ma'lumotnomalarni shakllantirish;
- To'lov hujjatlarini ko'rib chiqish va hujjatlarni turli belgilari asosida tanlab olish, Korxonada buxgalterlik hisobini yuritish tizimlarida (masalan, 1S tizimidan) tayyorlangan to'lov hujjatlarini import qilish;
- «Internet-Bank» tizimidan hujjatlarni matnli faylga eksport qilish va keyin korxonada buxgalterlik hisobini yuritish tizimiga import qilish;
- Ma'lumotnomalar axborotlarini ko'rib chiqish (masalan, valyutalar kurslari ma'lumotnomasi, bank bo'linmalari axborotnomasi).

«Internet-Bank» tizimida muvaffaqiyatli ishlash uchun Sizga quyidagi uskunalar va dasturiy vositalar kerak bo'ladi :

- Windows operatsion tizimi bo'lgan, Internet Explorer versiya 5.5 va undan yuqori bo'lgan dasturi bilan jihozlangan shaxsiy kompyuter;
- Internet Explorer sozlanishlarida rasmlarni aks ettirish, shuningdek ActiveX elementlari va ulanish moddullari ruxsat etilgan bo'lishi lozim. Bu ruxsatlar bir marotaba, Internet Explorer ni sozlash paytida belgilab olinadi. Ruxsatlarni belgilash kompyuterda ma'mur huquqlariga ega bo'lgan foydalanuvchi tomonidan bajarilishi kerak;
- Kompyuterdan Internetga kirish ta'minlangan bo'lishi lozim;
- Kompyuterda apparat himoya kaliti mavjud bo'lishi kerak, usiz «Internet-bank» tizimida ro'yxatdan o'tish va ishlash mumkin bo'lmaydi.

Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarining turlari:

Bank-Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo'lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma'lumotlarni saqlaydi (asosan to'lov hujjatlar va hisobvaraqlardan ko'chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o'rtasida modem orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa amalga oshiriladi.

3-JADVAL

Masafadan bank xizmatlarini ko'tsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni (2013 yil 1 aprel holatiga, dona) ⁸

No	Bank	Internet-banking va "Bank-Mijoz"	SMS-banking va mobil banking	Jami
1	TIF Milliy banki	4 227	30 071	34 298
2	OAT "O'zbekiston sanoat-qurilish banki"	2 042	1 348	3 390
3	"Agrobank" OATB	1 765	749	2 514
4	"Ipoteka-bank" ATI banki	3 158	27 255	30 413
5	"Mikrokreditbank" OAT banki	2 385	13 062	15 447
6	DT Xalq banki	1 204	-	1 204
7	Chet el kap. ishtir. "Savdogar" OATB	459	-	459
8	OATB "Qishloq qurilish bank"	1 239	8 692	9 931
9	"Turon" OAT banki	981	613	1 594
10	"Hamkorbank" OAT banki	4 147	4 767	8 914
11	"Asaka" DAT banki	1 503	8 513	10 016
12	"Ipak Yo'li" OAIT banki	3 229	2 042	5 271
13	"O'zbekiston-Turkiya banki" YoAJ	177	128	305
14	"Trastbank" XOAB banki	1 352	970	2 322
15	OAT "Aloqabank"	1 226	1 789	3 015
16	"KDB Bank O'zbekiston" YoAJ	217	498	715
17	"Turkiston" XOAT banki	227	25	252
18	Eron "Soderot" banki	11	12	23
19	"Samarqand" OAT banki	6 302	429	6 731
20	"Universalbank" XOAT banki	258	425	683
21	"Kapitalbank" OAT banki	2 803	3 907	6 710
22	"Ravnaqbank" XOAT banki	64	33	97
23	"Davir-Bank" XYoAT banki	704	-	704
24	"Kredit-Standart" OAT banki	34	215	249
25	"Invest Finance Bank" XOATB	1 028	431	1 459
26	"Amirbank" XOAT banki	52	38	90
27	"Asia Alliance Bank" XOAT banki	610	329	939
28	"Hi-Tech Bank" XYoAT banki	298	82	380
29	XYoAT banki "Orient Finans"	396	502	898
Jami		42 098	106 925	149 023

⁸ www.cbu.uz Internet sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko`rinib turibdiki, joriy yilning aprel holatiga ko`ra mamlakatimizda bankning yangi xizmat turlariga bo`lgan talab yildan-yilga oshib borayotganligini yuqoridagi jadvaldan ko`rishimiz mumkin. Bundan tashqari ko`rinib turibdiki, Internet banking va bank mijoz dasturlarini qo`llashda Samarqand bank yetakchi banklardan bo`lib turibdi, uning ko`rsatkichi: 6302 ta mijozga ega. Eng past ko`rsatkich esa 11 ta mijozga ega bo`lgan Eron "Sedorot" banki hisoblanadi. Sms banking va mobil banking sistemasi bo`yicha esa 30071 ta mijoz bilan TIF "Milliy banki" va 27255 ta mijoz bilan Ipoteka banki yetakchi o`rinda turganini ko`rib turibmiz. Ushbu sistema bo`yicha Xalq banki, Savdogar banki va Davr-banklarida mijozlar soni umuman ko`rsatilmagan. Mijozlar sonining kamligi bo`yicha Eron "Sedorot" banki hisoblanadi, ya`ni unda 12 ta mijoz mavjud. Har ikkala sistema bo`yicha yetakchi o`rinlarda TIF "Milliy banki", Ipoteka banki, Asaka banki va Mikrocredit banklari turadi.

2.2 Tijorat banklarida mijozlarga xizmat ko`rsatishning amaliy holati tahlili.

Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari – bu mijozning masofadan bergan topshiriqlariga asosan(bankka kelmasdan) bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyalaridir. Asosan kompyuter va telefon tarmoqlari orqali amalga oshiriladi.

On-line banking – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan plastik kartalarga ochilgan hisobqaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog'langan holda real vaqt davomida to'lovlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali qiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverda joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o'z ma'lumotlari (to'lov hujjatlar va hisobvaraqlardan ko'chirmalar)ni ko'rib chiqish imkoniyatiga ega.

Internet-banking xizmati orqali mijoz o'z ish joyida yoki boshqa o'ziga qulay sharoitda:

- to'lovlarni o'tkazish;
- to'lov o'tishi bosqichlarini kuzatish;
- barcha hisobotlarni olish

kabi barcha amaliyotlaridan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Internet-banking orqali mijoz o'z ish joyidan internet orqali bank saytiga ulanib o'z hisob raqamiga tushayotgan pullarni ko'rishi, pul o'tkazmalarini tayyorlab bankga uzatishi mumkin bo'ladi.


Mobil banking tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratiladi.

SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda plastik kartalarga ochilgan hisobqaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko'rinishdagi ma'lumotlarni olish tizimidir. Hisobvarag'idan ma'lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so'rovni yuborish kerak.

Mijoz uchun SMS-banking xizmati quyidagi amallarni bajarish imkoniyatlarini beriladi:

- hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'lar;
- hisobvarag'idan qilingan xarajatlar;
- hisobvaraq balansi;
- kun davomida o'tkazilgan bank operatsiyalari haqida operativ ma'lumot olish.


SMS banking xizmati mijoz uchun ham, bank uchun ham ishonchli va tezkor dasturlardan biri hisoblanadi. Mijoz bankka bormasdan turib Mobil telefoni orqali hisob varag'idagi mablag'ini tekshirishi, pul qo'yishi, pul yechishi va boshqa shu kabi operatsiyalarni bajarishi mumkin.



5-rasm. Masofadan bank xizmatlarini ko`rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning umumiy soni (dona).⁹

Bankning yangi xizmat turlaridan biri, masofadan bank xizmatlarini ko`rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning umumiy soni 2011-yilda mijozlarning umumiy soni 24545 tashkil etgan bo`lsa, joriy yilning 1-aprel holatiga ko`ra keltirilgan ma`lumotlar asosida mijozlarning umumiy soni 149023 taga yetganligini ko`rishimiz mumkin. Bu albatta mamlakatimiz tijorat banklari uchun ijobiy natija hisoblanadi. Banklarga masofadan xizmat ko`rsatishning yo`lga qo`yilishidan asosiy maqsad mijozlar sonini yanada oshirish va ularga tezkor, qulay xizmat ko`rsatishdan iborat. Bu jadval ma`lumotlaridan ham ko`rinib turibdiki, yil o`tgan sayin mijozlarning bankka bo`lgan ishonchi yanada oshmoqda, bu esa banklar uchun ijobiy natija hisoblanadi.

⁹ www.bank.uz Internet sayti ma`lumotlaridan foydalanildi.



6-rasm Masofadan bank xizmatlarini ko`rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni (turlari bo`yicha, dona) ¹⁰

Quyidagi 4-rasm yuqoridagi 3-rasmdan tubdan farq qiladi. 3-rasmda mijozlarning umumiy soni keltirilgan bo`lsa, 4-rasmda esa xizmat turlari bo`yicha mijozlar soni keltirilgan. Bunda internet banking xizmat turiga ulangan mijozlar soni, sms banking mijozlari soniga qaraganda nisbatan ancha past ko`rsatkichga ega. Yani SMS banking va mobile bankingda 2011-yil mijozlar soni 10304 tani ko`rsatmoqda, joriy yilning 1-aprel holatiga kelib esa mijozlar soni 106925 taga yetganini ko`rsatmoqda. Internet banking va bank mijoz tizimi bo`yicha esa mijozlar soni 2011-yilda 14241 tani, 2013- yil 1-aprel holatiga esa 42098 taga yetganini jadval ma`lumotlari asosida ko`rishimiz mumkin.

¹⁰ www.banking.uz Internet sayti ma`lumotlaridan foydalanildi.

«UYALI PUL» tizimi bilan ishlaganda xavfsizlik «Uyalipul» bilan ishlaganda xavfsizlikni oshirish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qiling: Kompyuteringizda antivirusni oʻrnatish va yangilab turing. Virus dasturlari barcha axborotni eslab qolishi va jinoyatchilarga joʻnatishi mumkin. Agar Siz login va parolingiz oʻgʻirlanganligidan shubhalansangiz, mumkin qadar tezroq oʻz parolingizni «Uyalipul» da aloqa markazi vositasida almashtiring.

«Uyalipul» ga kirish uchun faqat login, parol va SMS dagi bir marotabalik parol kerak boʻladi. «Uyalipul» da kartangizning raqami, tekshirish kodi yoki telefon raqami kabi axborotlarni kiritish uchun hech qanday qoʻshimcha kataklar boʻlmasligi lozim! Parolingiz va bir martalik parolingizni hech kimga, shu jumladan Xalq banki va «Uyalipul» tizimi xodimlariga aytmang. SMS dagi bir marotabalik parol faqat toʻlovni tasdiqlash uchun amal qiladi. «Uyalipul» da operatsiyani bekor qilish mumkin emas. Sizdan hech kim hech qachon operatsiyani bekor qilish uchun bir marotabalik parolni kiritishni soʻramaydi. Ichida bir marotabalik parol boʻlgan SMS xabaridagi operatsiya koʻrsatkichlarini diqqat bilan tekshiring. Unda keltirilgan axborot Siz tasdiqlamoqchi boʻlgan «Uyalipul» dagi operatsiya koʻrsatkichlariga mos kelishi lozim. Agar bu axborotlar mos kelmasa, bir marotabalik parolni kiritmang va bu haqda aloqa markaziga xabar qiling! Koʻpincha tovlamachilar qalbaki saytlarda qoʻngʻiroq qilib boʻlmaydigan notoʻgʻri raqamlarni koʻrsatadi, yoki ular boʻyicha Sizga operator javob berib, Sizni aldashga urinadi. Tovlamachilik yuzasidan shubhalanganda «Uyalipul» operatoriga qoʻngʻiroq qiling. Ulanish haqiqatdan SSL himoyalangan rejimida mavjudligini tekshiring — veb-brauzeringizning pastki quyi burchagida yopiq qulfning belgisi boʻlishi kerak. Yangi xizmat turlari xillarining bank sohasida yanada koʻpayishi, bu bank oʻziga shunchalik koʻp mijoz jalb qilishi degani. Mijoz qanchalik koʻp boʻlsa, bank kapitali, uning daromadi ham oshishidan dalolat beradi. Shunday ekan chet el banklari singari mamlakatimiz banklarida har xil zamonaviy bank xizmatlarini koʻpaytirishimiz lozim.

Yuridik shaxslar uchun internet-banking tariflari (AQSH dollarida).¹¹

BANK NOMI	SISTEMANI BITTA KALIT ORQALI O`RNATIB BERISH (ЭЦП)	OYLIK TO`LOV	KALITNI YUQOTIB QO`YGANLIGI YOKI SINDIRIB QO`YGANLIGI UCHUN JARIMA
Mikrokreditbank	0\$	20 000 cym	120 000 cym
Trastbank	0\$	20 000 cym	50\$
Bank UzKDB	40\$	20\$	40\$
Infinbank	15\$	20\$	60000 cym
Hi-Tech bank	30\$	20\$	80\$
Turkiston bank	2,0 MP3П	2,0 MP3П	94000
UT bank	100\$	0	75\$
Bank Ipak Yuli	10\$	10\$	80\$
Kapital bank	0	20 000 cym	3 MP3П
Universal bank	0	0.5 MP3П	150 000
Xalq banki	20\$	15-20\$	-
Asia Allianse bank	0\$	15\$	—
Samarqand bank	0\$	15 EUR	—
Amirbank	0\$	2,0 MP3П + 20% НДС	—

Ushbu jadvalda Internet benking tariflari ko`rsatib o`tilgan, yani kalit berish, kalit berganligi uchun oylik to`lovi va kalitni yo`qotib qo`yganligi uchun jarima narxi. Malumotlarga asosan eng arzon tarif bu Ipak yuli bankida kuzatilmoqda, eng qimmat tariff esa UT bankida kuzatilmoqda. Qolgan banklarda esa narxlar o`rtacha.

¹¹ www.cbu.uz Internet sayti ma`lumotlaridan foydalanildi.

Ushbu tizimda quyidagi funktsiyalarni va asosiy sozlash (nastroyki) ishlarini bajarish mumkin (dostupno`):

- Mijozga bir necha telefon raqamini biriktirib qo'yish;
- Mijozning bir necha hisobvaraqaqani bir telefon raqamiga biriktirish;
- Foydalanuvchilarni ishlashiga ruxsat berish yoki taqiqlash;
- Foydalanuvchilarni ba'zi telefonlarini ishlashiga ruxsat berish yoki taqiqlash;
- Mijozning telefoniga alohida xizmatlarni biriktirib berish;
- Mijozning telefoniga Bosh bank administratori tomonidan tayyorlangan alohida xizmatlar turkumini (paketini) biriktirib berish;

SMS – ma'lumotlari orqali mijoz quyidagi ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega:

- So'ralgan vaqtdagi xisobvaraqaqadagi qoldiklarni;
- Hisobvaraqa bilan amalga oshirilgan so'ngi kirish amallarni;
- Hisobvaraqaqadagi amalga oshirilgan so'ngi chiqish amallari;
- Kirish amallarni soni va summasi
- Chiqish amallarni soni va summasi

Bulardan tashqari mijoz bank yangiliklarini olish imkoniyatiga ega.

Xavfsizlik masalalarini e'tiborga olgan holda ushbu dasturga pul o'tkazish funktsiyasi kiritilmagan.

Tezkor SMS-xabarlash – bu, axborot xizmatlari kompleksi bo'lib, ular TIF “Milliy bank” so'm plastik kartochkalari egalarining uyali telefonlariga SMS-xabarlar yuborish orqali taqdim etiladi. Siz har safar bank kartochkasi orqali pul to'laganingizda yoki Sizning kartochka hisobvarag'ingizga mablag'lar kelib tushganida bajarilgan operatsiya va kartochka hisobvarag'ingiz qoldig'i haqida SMS-xabar olasiz. SMS - xabarlash imkoniyatlari Jismoniy shaxslar uchun: quyidagilar haqida SMS-xabarlar olish: kartochka hisobvarag'ining balansi: kartochka hisobvarag'idagi mablag'lar harakati; kartochka kartochka hisobvarag'i bo'yicha bajarilgan operatsiyalar haqida axborot; omonatga qo'shilgan foizlar; hisobvaraqa

kiritilgan undan chiqarilgan mablag'lar;
shaxsiy IVR-kabinet xizmatidan foydalanish imkoniyati.
Shaxsiy IVR-kabinet yoki IVR (InteractiveVoice Response) – Ovozli xabarlash tizimi servisi.

Mazkur intellektual platforma uyali yoki shahar telefon raqamlaridan Bankning raqamiga qo'ng'iroq qilib, shaxsiy IVR-kabinet orqali interaktiv rejimda bank mahsulotlari va xizmatlari, shuningdek mijozning depozit hisobvaraqlari bo'yicha axborot olish imkonini beradi.
IVR servisidan foydalanuvchi mijoz axborot xizmatlari bo'yicha xabarlarni mustaqil ravishda ulashi yoki bekor qilishi, shuningdek o'zining bank/kartochka hisobvarag'i holatini kuzatishi va bajarilgan oxirgi operatsiyalar haqida ma'lumot so'rab, SMS-xabar ko'rinishida javob olishi mumkin.
Shaxsiy IVR-kabinetga kirish PIN-kod bilan himoyalangan.
Cheksiz E-Mail-xabarlash – TIF "Milliy bank" mijozlarining kartochka hisobvaraqlari bo'yicha bajarilgan operatsiyalar haqida elektron pochta manziliga avtomatik tarzda xabar yuborish.
SHaxsiy elektron pochta manziliga reaol vaqt rejimida avtomatik tarzda quyidagi xabarlarni olish imkonini beradi: hisob-kitob varag'ida (yoki plastik kartochka hisobvarag'ida) kirim - chiqim operatsiyasi bajarilganda: har bir kun oxiri yoki boshidagi holatga ko'ra hisobvaraq qoldig'i to'g'risida; kredit operatsiyalari bo'yicha hisoblangan foizlar haqida; savdo terminali inkassatsiya qilingani va inkassatsiya qilingan summa to'g'risida; omonatga navbatdagi foizlar qo'shilgani haqida.
Quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, AQSH da bankning yangi xizmat turlari bizga qaraganda ancha oldin paydo bo'lganligi kuzatilmoqda, ya'ni AQSH zamonaviy bank xizmati turlari bilan 1996-yildan buyon mijozlarga xizmat qilib kelmoqda, Internet banking xizmati ham 1-bo'lib AQSH da 1999-yildan boshlab joriy qilingani jadvalda ko'rsatib o'tilgan.

AQSHdagi asosiy virtual banklar ro'yxati ¹³

№	Virtual banking nomi	Paydo bo'lgan yili
1.	BankDirect	1999
2.	CompuBank	1998
3.	DeepGreenBank	2000
4.	directbanking.com	1999
5.	E*TRADE Bank	1997
6.	ebank	1999
7.	everbank.com	1999
8.	FirstInternetBank	1999
9.	First-E	2000
10.	giantbank.com	2000
11.	JustBankIt.com	2000
12.	Lighthousebank.com	2000
13.	MilleniumBank	1999
14.	Moneywise-bank.com	2000
15.	MyBankUSA	2000
16.	NationalInterBank	1999
17.	nBank	1996
18.	NetBank	1996
19.	NexityBank	2000
20.	PresidentialOnlineBank	2000
21.	SecurityFirstNetworkBank	1995
22.	UmbrellaBank	2000
23.	USAccessBank	1999
24.	VirtualBank	2000
25.	WingspanBank	1999
26.	X.com	1999

E-Mail-xabarlash tizimining afzalliklari:

Bank xodimlarining ish vaqtidan qat'i nazar, real vaqt rejimida E-Mail-xabar shaklida axborot olish imkoniyati; xizmatdan Internet tarmog'iga

¹³ www.Ebank.uz Internet sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

ulangan kompyuter orqali ham, GPRS/WAP xizmatiga ulangan uyali telefon orqali ham foydalanish;

pochta serveri bilan mijoz o'rtasida himoyalangan kanal orqali maxfiy axborot almashish. SMS va E-Mail-xabarlash xizmatlari korxonalar va tashkilotlar rahbarlari, xususiy tadbirkorlar, shuningdek korporativ kartochka ushlovchilarni qiziqtiradi.

Elektron to'lov tizimlari – keng imkoniyatlar maydoni.

Elektron to'lov tizimlari aholining uzog'ini yaqin qilib, ko'plab qulayliklar yaratishi yufayli tezda xalqimiz etiborini qozondi. Buni 2006-yildan boshlab bankdan tashqari tezkor to'lovlar sektorining shiddat bilan rivojlanganligida ham ko'rish mumkin. Ushbu jabhada PAYNET, E-PAY, FAST-PAY, UNIPAY, CYBERPLAT kabi savdo belgilari ostida bir qancha kompaniyalar faoliyat yuritmoqda. Ushbu kompaniyalar aholi uchun qulay joylarda joylashgan ko'plab agentlar tarmog'I bilan ishlaydi va aholidan uyali aloqa, internet provayderlar, xalqaro telefon aloqa xizmatlari uchun to'lovlarni qabul qiladi. Toshkent shahri shuningdek shahar telefon aloqasi, elektr energiya va tabiiy gaz xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshiradi. Mazkur xizmatlarning qulayligi agentlarning ko'p sonli va belgilangan miqdor doirasida har qancha summani to'lash imkoniyati mavjudligi mazkur xizmatlarning qulayligini taminlaydi. o'z xizmatlari uchun agentlar to'lov summasidan o'rtacha 2 foiz oladilar.

III-bob. BANK VA MIJOZLARNING SHERIKCHILIK MUNOSABATLARINI MUSTAHKAMLASH YO`LLARI

2012-yil 26-noyabr kuni O‘zLiDePning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi, Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo‘mitasi, Savdo sanoat palatasi hamkorligida «Tijorat faoliyati va tadbirkorlikda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llashni rivojlantirish: amaliyot va qonunchilik» mavzusida davra suhbatini tashkil etildi.

Tadbirning asosiy maqsadi tijorat faoliyati va tadbirkorlikda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llashni yanada rivojlantirishga qaratilgan qonunchilik bazasi va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish borasidagi ustuvor vazifalarni muhokama etish hamda aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo‘ldi.

Davra suhbatini ishtirokchilari fikriga ko‘ra, kichik biznesning YAIMdagi ulushini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, mahsulotni realizatsiya qilish hajmi va geografiyasini kengaytirish, biznesda boshqaruv tizimini optimallashtirish, davlat organlari bilan tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi munosabatlar shaffofligini ta’minlash uchun tijorat faoliyati va tadbirkorlikda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Shu o‘rinda AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Fransiya, Koreya Respublikasi kabi bir qator rivojlangan mamlakatlar tajribasiga nazar solinadigan bo‘lsa, ularda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga davlat xizmatlari ko‘rsatishning optimallashtirilganini, YAIMda kichik biznes subyektlarining ulushi oshganini ko‘rish mumkin. Bu aholi hamda biznesga xizmat ko‘rsatish sifati va samarasini oshirish bilan birga, ortiqcha xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirish imkonini bermoqda.

Tadbir ishtirokchilari alohida ta’kidlaganlaridek, O‘zbekistonda ham bu borada tizimli ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan, axborotlashtirish va

telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish va modernizatsiyalashga, aholi va tadbirkorlik subyektlariga axborot kommunikatsiya xizmatlari ko'rsatishning sifatini oshirishga, davlat interaktiv xizmatlarini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, barcha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini soliq va moliyaviy hisobotlarni topshirishning elektron tizimiga bosqichma bosqich o'tkazish boshlandi. Natijada, tadbirkorlar soliq deklaratsiyasini taqdim etish hamda soliqlar to'lovini onlayn tizimi asosida amalga oshirishi mumkin. Ular soliq va moliya muassasalariga bormagan holda, Internet tarmog'i orqali o'z soliq deklaratsiyalarini taqdim etishlari va soliqlarni to'lashlari mumkin.

Shuningdek, elektron inkassa topshiriqlarini taqdim etish va nazorat qilish tizimi joriy etildi. Mazkur tizim amaliyotga tatbiq etilgach, qog'oz shaklida hujjat almashuvining qisqarishi birgina Davlat soliq qo'mitasi tizimida yiliga 30–40 tonna qog'oz sarfini kamaytirish va inkassa topshiriqlarini tayyorlash bo'yicha sarf xarajatni 250 mln. so'm miqdorda tejash imkonini berdi.

Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan tashqi savdo operatsiyalarning integratsiyalashgan idoralararo Yagona elektron axborot tizimi joriy etildi. Ushbu tizim tashqi savdo shartnomalarini ro'yxatga olish jarayonini tezlashtirish hamda milliy tovarlar eksportidan tushayotgan mablag'lar ustidan valyuta nazoratini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Tranzit tovarlar va transport vositalarini nazorat qilishning yagona avtomatlashtirilgan tizimi joriy etilib, bu tranzityuklarni real vaqtda rasmiylashtirish va nazorat qilishni avtomatlashtirish imkoni bermoqda.

Davlat statistika qo'mitasi tomonidan taqdim etilayotgan elektron shaklda firma nomlarini ro'yxatga olish tizimi orqali bugungi kunda 77 mingdan ziyod tadbirkorlik subyektlarining elektron murojaatlari ko'rib chiqilib, ro'yxatga olindi. Tadbirkorlik subyektlaridan firma nomlarini ro'yxatga olish bo'yicha arizalar statistika organlari tomonidan kechayu kunduz qabul qilinmoqda. Arizalarni ko'rib chiqish va arizachiga tegishli bildirgi xati 4 ish soatidan oshmagan muddatda yuboriladi.

To'lov xujjatlari bilan ishlashda, tizim quyidagilarni amalga oshirishga ruxsat beradi:

- yangi xujjatni yangidan va namuna bo'yicha to'ldirish. Bu degani mijoz bo'sh blankani olgandan keyin uni uch xil yo'l bilan to'ldirishi mumkin. Birinchisi – qo'l bilan yangidan ma'lumotlarni kiritish Ikkinchisi - shablon xujjatlar spravochnigini chiqarish orkali. Uchinchidan - oldin qilingan xujjatni ko'chirib olish orqali, ya'ni oldin qilingan xujjat ro'yxatdan topiladi va ko'chirib olinadi. Shu bilan birga mijoz ko'chirib olgan xujjatini o'zgartirish imkoniga ega bo'ladi.
- Agar mijoz Off-line rejimida boshqa buxgalteriya dasturlari orqali to'lov xujjatlarini tayyorlab qo'ygan bo'lsa, ularni «Bank- Mijoz» tizimiga kuchirishi, yoki ushbu ikki programmani bog'lashi mumkin, lekin bunda ushbu elektron xujjatlar qattik tekshiruvdan o'tkaziladi.
- Ko'pgina to'lov xujjatlarining modellari doimo saqlanib turadi va ularni qaytadan kiritish shart emas. Masalan: xujjatning nomeri, oluvchining rekvizitlari va boshqalar.
- Mijoz tomonidan spravochnik yuritish. Bunda mijoz tez-tez qaytarilib turadigan xujjatlarni spravochnikka kiritib qo'yadi va u kerak bo'lganda spravochnikdan chiqarib oladi va ishlatishi mumkin.
- To'lov xujjatlarini mijoz tomonidan birma-bir imzolanishi mumkin, yoki birdaniga xammasi filtr orqali, yoki korrespondensiya orqali imzolanadi.
- Jo'natilgan xujjatlarni qaytarib olish imkoni, ya'ni agar mijoz elektron xujjatni jo'natgan bo'lsa-yu, bank tomonidan ushbu xujjat bo'yicha hali to'lov amalga oshirilmagan bo'lsa, hisob raqamida o'zgarishlar bo'lmagan bo'lsa, mijoz to'lovni bekor qilishi mumkin.
- Elektron xujjatlarni printerdan chiqarib olish imkoni, ya'ni mijoz barcha elektron xujjatlarni, ko'chirmalarni o'ziga qulay xolda printerdan chiqarib olishi mumkin va uni o'zida saqlab o'tirishi shart emas.

- tizimga ulangandan buyon amalga oshirilgan barcha axborotlar arxiviga - ya'ni bank serverida axborotlar saqlash imkoni bo'ladi. Bunda mijoz uning kompyuteridagi disk xotirasini saqlaydi, yani u ushbu axborotlarni bilmasdan, yoki ataylab o'chirilib ketmasligi imkonini beradi.
- Berilgan rekvizitlari bo'yicha arxivdan kerakli xujjatlarni tezda topish imkoni, ya'ni xisobraqamlar bo'yicha, korrespondentlar bo'yicha, valyuta turlari bo'yicha topish imkoni bo'ladi.
- Axborotni filtrlash va sortirovka qilish. Bunda mijozni qidirish ma'lumotlari kiritilsa bo'ldi, topish tezlashadi.

Ushbu tizim mijoz uchun xaqiqiy vaqt rejimida quyidagilarni olish imkonini beradi:

- O'zining barcha xisobraqamlaridagi iqoldiqlar haqidagi ma'lumotlar;
- So'rov berilgan vaqtgacha bo'lgan barcha oborotlari xaqidagi barcha xisobraqamlaridan ekspress ko'chirmalar olish;
- Xamma xisobraqamlari bo'yicha bank operastion kuni yopilishidan keyin ko'chirma olish imkoni;

Xar standay xisobraqamidan xar qanday davr uchun ko'chirma olish imkoni;

- On-line rejimida turgan hollarda, o'tkazgan to'lovlari, bankning moliyaviy holati xaqida aniq ma'lumot olish imkoni;
- Aniq On-line rejimida turgan xolda, 2-kartotekada turgan xujjatlar xaqida ma'lumot olish imkoni;
- Barcha ssuda va depozitlar bo'yicha xisoblangan foizlar xaqida va ularni to'lash vaqti to'g'risida ma'lumot;
- Ssuda bo'yicha xisoblangan qarzlari bo'yicha oxirgi ma'lumotlarni olish;
- O'zbekiston Respublikasi banklari to'g'risidagi spravochnikdan ma'lumot olish;
- MB tomonidan belgilangan joriy va oldingi valyuta kurslari xaqida ma'lumot.

Bundan tashqari «Bank-Mijoz» tizimi:

- kelajakda amalga oshirilishi kerak bo'lgan to'lovlarni ushlab turish;
- ko'p qirrali elektron imzoni qabul qilish imkoni, ya'ni operator-buxgalter-direktor;

Tizim bank bilan pochta almashish imkonini beradi:

- bankka tekst xolatidagi axborotni jo'natish, yoki bankdan qabul qilib olish imkoni;
- bankka ixtiyoriy xolatdagi fayllarni jo'natish va qabul qilib olish;
- bankning e'lonlar doskasi bilan bog'lanib turish va u yerdan axborotlar olish imkoni.

Mamlakatimizdagi tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish ham yo'lga qo'yildi, jumladan, bank mijoz, internet banking, sms banking kabi xizmatlar shular jumlasidandir. Real vaqt rejimida Internet banking tizimi orqali tadbirkorlar mobil telefon yordamida o'z hisob varaqlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. O'zbekistondagi 30 ga yaqin banklar mazkur xizmatni taqdim etmoqda.

Shu bilan birga, davra suhbatida ishtirokchilarining fikriga ko'ra, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, biznesni yuritish shart sharoitlarini erkin bozor iqtisodiyoti talablari va tamoyillariga, umumqabul qilingan xalqaro me'yor va standartlari darajasiga ko'tarish muhim va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar sirasiga kiradi.

Davra suhbatida yakuni bo'yicha tijorat faoliyati va tadbirkorlikda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llashni yanada rivojlantirishga qaratilgan qonunchilik bazasi va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Internet texnologiyasi xizmatlari - Zamonaviy Internet-texnologiyalar banklarga xizmatlarining bir qismini yangi saviyaga o'tkazishga va shu orqali yangi mijozlarni jalb etishga va ularga xizmat qilish xarajatlarini pasaytirishga imkon yaratadi. An'anaviy banklarning aksariyati o'z mijozlariga elektron xizmat qilish va schet to'lovining qo'shimcha shakllarini tavsiya etadi. Faqat Internetda ish yurituvchi banklar nisbatan yaqinda paydo bo'ldi. Ular Web-

banklar deb ataladi. Eng yirik Web-banklar sirasiga First Internet Bank, Net Bank, CompuBank va qator boshqa banklar taalluqli.

Hozirgi kunda milliy to'lov tizimi negizida Markaziy bankning yagona banklararo to'lov tizimi, 29 ta tijorat bankining ichki to'lov tizimlari, shuningdek, bank kartalari bo'yicha tijorat banklarini qamrab olgan "Uz-Kart" banklararo chakana to'lov tizimi, aholidan uyali aloqa xizmati, kommunal va boshqa to'lovlarni qabul qilish bo'yicha "Uz-Paynet" to'lov agentlik tarmog'i hamda "sms-to'lov" chakana to'lov tizimlari faoliyat yuritmoqda. Tijorat banklari kuchli, ishonchli va yuqori samaradorlikka ega bo'lgan platformalar asosida axborot texnologiyalari yutuqlarini bank faoliyatiga dadillik bilan tadbiq qilib, ular asosida mukammal dasturlar yaratib, axborot tizimlari infrastrukturasini rivojlantirmoqda. Bu o'z navbatida, mamlakatimiz banklari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini kuchaytirish, an'anaviy bank xizmatlari sifatini oshirish, yangi xizmatlarni joriy etishga yo'naltirilgan ishlarni muttasil davom ettirishga da'vat etmoqda. Mijozlar safini kengaytirish uchun taqdim etayotgan xizmatlari ro'yxati muntazam ravishda kengaytirilib, tijorat banklari turli moliyaviy xizmatlarni ko'rsatuvchi, ta'bir joiz bo'lsa, o'ziga xos "supermarket" larga aylanib bormoqda. Mazkur ishlarning samarasi o'laroq, 2013-yil 1-may holatiga respublikamiz bo'yicha qariyb 44 mingdan ziyod xo'jalik yurituvchi sub'ektlar "Bank-mijoz" va Internet-banking dasturiy majmualari xizmatlaridan foydalanib kelmoqda. Mijozlar masofadan turib, kompyuter va elektron aloqa tizimi orqali bank operatsiyalarini amalga oshirmoqdalar.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yangi bank mahsulotlari va xizmatlarining joriy etilishi mamlakatimiz bank xizmatlari bozori kengayishiga sharoit yaratmoqda. Respublikamizda bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlangan sari tijorat banklari ham chakana operatsiyalar, mijozlarga taqdim etadigan xizmatlar turlarini oshirish orqali o'z faoliyatini diversifikatsiya qilib bormoqdalar.

Internet-banking deganda, odatda, mijozga oddiy kompyuter yordamida standart brauzerni ishlatib bank schetidan Internet orqali to'g'ridan-to'g'ri foydalanish imkoniyatining berilishi tushuniladi. Internet-banking tizimining namunalı varianti mijozlarga bank ofislaridagi fizik shaxslarga (tabiiyki, naqd pul bilan bajariladigan amallar bundan istisno) taqdim etiluvchi bank xizmatining to'liq naborini o'z ichiga oladi.

Hozirda Internet-banking xizmati har biri Internet orqali amalga oshiriluvchi quyidagi imkoniyatlarga ega:

- naqd pulsiz hisob-kitoblarni bajarish;
- kommunal xizmatlar uchun to'lovi;
- Internetdan foydalanish uchun to'lovi;
- uyali va peydjıng aloqa operatorlari schetlarini to'lash;
- ichki va banklararo xujjat asosidagi to'lovlarni bajarish;
- o'z schetlari bo'yicha mablag'larni o'tkazish;
- istalgan vaqt oralig'i uchun o'z schetlari bo'yicha barcha bank amallarini kuzatish;

Internet-banking tizimidan foydalanish mijozlarga qator imtiyozlar beradi:

- foizli stavkalari nisbatan yuqori;
- shaxsan bankka borish zaruriyati yo'qligi hisobidan mijozning vaqti jiddiy tejaladi;
- mijoz sutkada 24 soat shaxsiy schetini nazoratlash va moliya bozoridagi vaziyatning o'zgarishiga tezdan reaksiya ko'rsatish imkoniyatiga ega.

Xulosa

Bizga malumki XXI- asr texnika asri deb e'lon qilingan, Shunday ekan Hozirda baz Internetsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Nafaqa odamzot, balki hozirgi kunda korxona va tashkilotlar ham, shu qatorda banklar ham internetsiz faoliyatini tasavvur eta olmaydi.

Chunonchi, Jahonda internet tarmog'iorqali deyarli barcha sohalarda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi amaliy munosabatlarni olib boorish, aholining keng qatlamiga tovarlarni sotish hamda istemolchilar o'rtasida tovarlar va xizmatlar bilan o'zaro almashuv juda keng tarqalgan.

Yurtimiz aholisi hususan, tadbirkorlar o'rtasida elektron tijoratdan foydalanish ko'lamini kengayib bormoqda. Buning asosiy omoli yurtimizda elektron tijorat va Moliya – iqtisodiyot, savdo sohaslarida axborot texnologiyalaridan keng foydalanish uchun zarur meyoriy – huquqiy baza yaratilgani hisoblanadi.

“ Elektron tijorat “ deganda avvalo internet tarmog'i orqali tijoratga oid faoliyat yuritish unda oldi-sotdilarini amalga oshirish xizmatlari, yani har xil to'lovlarni internet orqali amalga oshirish, bunga misol qilib PAYNET larni aytshimiz mumkin, yoki Mijoz bankdagi hisobvarag'i to'g'risidagi ma'lumotni internet orqali bilib olishi, bank va mijoz o'rtasidagi to'lovlarni internet va sms orqali amalga oshirishini tushunishimiz mumkin.

Yurtimizda On-line banking, sms-banking, Internet banking va boshqa bankning yangidan – yangi xizmatlari va bankdan tashqari elektron to'lovlar tizimlari jadal suratlarda rivojlanar ekan, yaqin kelesajakda on – line sotuvlar sektorida keskin o'sishni kutish lozim, debt a'kidlamog'dalar soha mutahassislari.

Qisqa fursatlar ichida ulgurji va chakana savdo bilan shug'ullanuvchi barcha korxona va tashkilotlar Internet tarmog'i orqali tovarlarni bema'lol sotish imkoniyatiga ega bo'lsalar, ajab emas.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining mahsulot va xizmatlariga talab mavjud ekan, ular faoliyat ko`rsatadi. Tijorat banklari rivojlanish strategiyasida asosiy yo`nalish sifatida yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish yoki ularni modernizatsiya qilishga e`tiborlarini qaratadilar. Yaqinda yuz bergan jaxon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi va uning oqibatlarini shuningdek, hozirgi vaqtda jahonda globallashtirish jarayonlari chuqurlashib borayotganini e`tiborga olgan holda, bank-moliya tizimini barqarorligini taminlash O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karomov ta`biri bilan aytganda muhim ustuvor vazifa bo`lib qolmoqda.

Zero: “ Bank xizmatining yangi turlarini joriy etish, aholi va xo`jalik subyektlarining bo`sh mablag`larini banklarning uzoq muddatli depozitlariga jabb etishni kamida 30 foizga ko`paytirish, mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan uzoq muddatli kredit qo`yilmalari ulushini ichki manbalar hisobidan oshirish uchun mustahkam oasos yaratish masalalarini qo`shimcha ravishda ishlab chiqish talab etiladi ”

Shunday ekan, Prezidentimiz ma`ruzalaridagi gaplaridan ko`rinib turibdiki, Hozirgi kunda zamon talabiga binoan, Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliya – bank tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish hamda bank tizimiga aholi va korxonolarning ishonchini yanada mustahkamlash, aholi omonatlari va kreditlariga imtiyozlar bilan bir qatorda ularga qulayliklar yaratib berish maqsadida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo`llagan holda ko`rsatilayotgan bank xizmatlarining turi va ko`lamini kengaytirish bo`yicha tizimli chora tadbirlarni amalgam oshirish zarur.

Yana xulosa o`rnida shunu aytish mumkinki, tobora taraqqiy etib borayotgan texnika va texnologiyalar davrida aynan Bankning yangi xizmat turlarining rivojlanishi bizning mamlakatimiz nafaqat bank tizimi balki bir butun iqtisodiyoti ichun ham zaruriy omil bo`lib xizmat qiladi. Bank tizimiga joriy

etilatorgan ushbu yangi xizmatlarning samarasi o`laroq to`lov tizimi ham bir muncha tezligi yuqori bo`lishi, oxir oqibat vaqtning tejalishini ko`pchilik operatsiyalarning o`z vaqtida bajarilishiga ham zamin yaratadi.

Hozirda barcha hujjat ishlari kompyuterda bajarilishi an`anaga aylangani singari, ajab emas huddi Yevropa yoki AQSH dagi singari aynan Internet banking xizmatidan to`laqonli miqyosda foydalanish shu yaqin yilllar ichida odatiy holga aylanishi tabiiy holatga aylansa ajab emas.

Zamonaviy bank xizmatlarining qo`llanilishi mijozlarga juda ham katta qulayliklar yaratish bilan birgalikda birmuncha muammolarni ham keltirib chiqarishi sir emas. Muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflarni kiritish mumkin:

1. Internetdagi hisobning havfsiz boshqarilishini kafolatlaydigan mahsus korxona va tashkilotlar faoliyatini joriy etish juda muhim. Chunki har qanday biznesning asosi ishonch va kafolatdir. Chunki ishonchsiz yoki kafolatsiz sherik bilan hech kimning ishlagisi kelmaydi.
2. Ko`proq chet el amaliyotidan andoza olgan holda ushbu tizimni yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan chora tadbirlarni amalga oshirishni davom ettirgan holda yangi natijalarni qo`lga kiritish lozim.
3. Bankning barqarorligini va uning kapitalini yanada oshirish.
4. Mijozlarga qo`shimcha konsalting xizmatlarini joriy etish (har xil maslahatlar berish).
5. Banklarda marketing xizmatlarini takomillashtirish.
6. Bank xizmati turlarini yanada ko`paytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. Sharq, 1992 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida" gi qonuni. 21-dekabr 1995 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi qonuni. 25- aprel 1996.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida" gi 21-mart 2000 yildagi PF-2564-sonli farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirishni rag'batlantirish chora – tadbirlari to'g'risida" gi PF – 3831 sonli Farmoni, 2006 yil 19 dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida "gi 26-noyabr 2010 yildagi PQ-1438-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 6-aprel 2010 yildagi PQ-1317-sonli qarori.
8. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida – T: "O'zbekiston", 2005.-528 b.
9. Karimov I.A. "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir." –2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar.
10. Karimov I.A "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir." – O'zbekiston

- Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar.
11. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish”. – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim usuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. / Xalq so'zi/ 2013 yil 20 yanvar.
 12. Karimov I. A. “ 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi.” - 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar.
 13. Karimov I.A. „Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” T.2009.
 14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2004 yil 17 iyuldagi 578-son qarori bilan tasdiqlangan (2004 yil 13 avgustda 773-17-son bilan ro'yxatga olingan) "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi" (yangi tahrir).
 15. Lavrushin O.I. Dengi, kredit, bank. GM.: KNORUS, 2007-y. 319-b
 16. Jukov E.F. Bank va bank operatsiyalari,darslik – 2008-y. 388-b
 17. Zaxarov V.S. Kommerz banklar: Pul va kredit. – 2008. - №9. 35-490-b.
 18. Suvorov A.V. Bank majburuyatlari analizi/Moliya va kredit 2009, №21
 19. Abdullayev Y, T.Qoraliyev, Sh. Toshmurodov, S. Abdullayeva. “Bank ishi” o'quv qo'llanma – T:“IQTISOD-MOLIYA”nashriyoti, 2010.-142 b.
 20. Lavrushin O.I. Bank ishi/ ekspress kurs/2009. – 96-105-b.
 21. Garipova Z.L./ Bank ishi. – 2010-y

22. Ibragimov A.I., M. Marpatov, N. Rizayev. Banklarda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari // Bozor, pul, kredit. – Toshkent, 2012.- №08(183).
23. Abdullayev. Soliq imtiyozlarining banklar foydasini oshirishdagi ahamiyati // Bozor, pul, kredit. – Toshkent, 2012.- №09(184).
24. Mullajonov. F. O'zbekiston bank tizimi barqaror rivojlanish, xalqaro mezonlarga erishish yo'lida // Bozor, pul, kredit. – Toshkent, 2013.- №1.
25. "Bank axborotnomasi" gazetasi. №14(881), №17-18(884-885) 2-10 bet, №19 (886) 5-10 bet.
26. Abdullayev, S. Xodjayev. Tijorat banklarida soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari // Bozor, pul, kredit. – Toshkent, 2012.- №11(184).
27. "Ipoteka - bank" OATBning 2011, 2012, 2013 yillar uchun yillik moliyaviy hisoboti.
28. "Hamkorbank" OATB ning yig'ma moliyaviy hisoboti (2012 yilning dekabr holatiga ko'ra).
29. "Ipak Yuli bank" OAITB ning moliyaviy hisoboti.
30. Internet saytlari:
www.cbu.uz.
www.bank.uz
www.ipoteka.uz
www.bpk.uz.
www.uzrepot.com.
www.http/news.olam.uz/uz/business/6065.html.
www.banking.uz
www.lex.uz